



SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI DIREKTORINING BUYRUG'I

Markaz kengashining 2025-yil 27-martdagi 2-sonli navbatdan tashqari yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish to'g'risida

Markaz kengashining 2025-yil 27-martdagi 2-sonli navbatdan tashqari yig'ilish qarorlarini ijroga yo'naltirish maqsadida **buyuraman**:

1. Markaz kengashining 2025-yil 27-martdagi 2-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Markaz kengashi qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash belgilangan mas'ullar tomonidan amalga oshirilsin.
3. Mas'ullar tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni 10 kun muddatda Markaz kengash kotibi (D.Yunusova)ga taqdim etilsin.
4. Kengash qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlarni umumlashtirib, ijrosining monitoringini yuritish Markaz kengash kotibi (D.Yunusova)ga yuklatilsin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Direktor



A.Ibragimov

Samarqand sh.
28 mart 2025 yil.
30-son

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-martda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 27-mart

2/1 -son
Samarqand shahri

**“Korrupsiya–jamiyatni yemiruvchi
omil” ekanligi haqida**

Markaz yuriskonsulti I. Doniyorovning ““Korrupsiya–jamiyatni yemiruvchi omil” ekanligi haqida”gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz yuriskonsulti I. Doniyorov so'zga chiqdi: – BMT Bosh Assambleyasining 2003-yildagi rezolyusiyasiga asosan 9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilgan. BMT Bosh Assambleyasining 2003-yildagi rezolyusiyasiga asosan belgilangan ushbu sana jahon hamjamiyati e'tiborini taraqqiyot kushandasi – korrupsiya illatiga qaratishi, barchani unga qarshi kurashish yo'lida birlashishga undashi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

Korrupsiya ma'naviy nuqtayi nazardan axloqsizlik va illat, huquqiy jihatdan jinoyat hisoblanadi. “Korrupsiya” atamasi lotincha “corruptio” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “pora evaziga og'dirish” degan lug'aviy ma'noni anglatadi.

Yuridik ensiklopediyada qayd etilishicha, “Korrupsiya – mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyatdir”.

“Yuridik atamalar qomusiy lug'ati”da esa mazkur tushunchaga “davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi”, deya ta'rif berilgan.

Korrupsiya – siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat bo'lib, mansabdor shaxslar o'zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishidan iborat, degan tavsif ham ayrim huquqiy adabiyotlarda keltirilgan.

Demak, korrupsiya, umumiy qilib aytganda, mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jinoyat sanaladi. Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat amaldorlari tomonidan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab, boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olish, qonunga xilof pul daromadlarini qo'lga kiritish tushuniladi. Ammo bu yuzaki tasavvur. Chunki korrupsiyaviy munosabatlar ishtirokchisi istalgan mavqedagi shaxs bo'lishi, qolaversa, pora pul bilan emas, boshqa shaklda ham berilishi mumkin.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya – hozirda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida mavjud bo'lgan dolzarb muammodir. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni qonun ustuvorligini ta'minlashi lozim bo'lgan kishilar sodir etadi.

Oqibatda aholining hokimiyatga bo'lgan ishonchi pasayadi, jamiyatda adolatsizlik kuchayadi, qonunlar ijrosi ta'minlanmaydi. Bu esa xalq farovonligi va davlat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyat o'z tarixi davomida korrupsiyaga qarshi turli usullar hamda vositalar orqali muttasil kurashib kelgan. Hatto eramizdan avvalgi davrlarda mavjud bo'lgan Shumer podsholigiga oid manbalarda ham korrupsiyaning zarari va oqibatlari bayon etilgan.

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188).

Buyuk imperiya Usmoniylar saltanatida poraxo'rlik oqibati shu bo'ldiki, qo'shinlar harbiy tayyorgarligini yo'qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag'lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi. Qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natija bermagan.

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan.

Korrupsiya jinoyatlari tarixda qo'llangan jismoniy, moddiy yoki ma'naviy jazolar orqali barham topmadi. Shuning uchun bugungi kunda ushbu illatga qarshi xalqaro va milliy qonunchilik, sog'lom ma'naviy muhit, ta'lim va tarbiya, shuningdek, jamoatchilik nazorati orqali kurashishga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida korrupsiyaga qarshi nafaqat bir davlat doirasida, balki xalqaro darajada ham kurashish zarurati yanada oshdi. Binobarin, korrupsiya hech bir davlatga foyda keltirmaydi, aksincha, mamlakatdagi demokratik islohotlarga, mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va ushbu turdagi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada zaruriy chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda salmoqli yutuqlarga erishilganini e'tirof etish lozim.

Albatta, korrupsiya illati qisqa fursatda barham beriladigan muammo emas. Unga qarshi aholida sog'lom fikr shakllanib, davlat va jamiyat hamkorlikda kurashsagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Shunday ekan, har birimiz, avvalo, o'z mehnat faoliyatimizda halol bo'laylik va har qanday korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz munosabatimizni bildiraylik. Unutmaylikki, korrupsiya – taraqqiyot dushmani. Unga qarshi kurashish har birimizning burchimizdir.

Yuqoridagilar muhokama etildi va Kengash yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. Markaz yuriskonsulti I.Doniyorovning "Korrupsiya-jamiyatni yemiruvchi omil" ekanligi haqida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlariga:

- professor-o'qituvchilar va xodimlar ish faoliyati jarayonida korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik;

- har bir guruh mas'uli guruh tinglovchilari bilan doimiy ravishda korrupsion holatlarni oldini olish bo'yicha suhbatlar olib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Markaz yuriskonsulti I. Doniyorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-martda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 27-mart

2/2-son
Samarqand shahri

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat
markazi nashri hisoblangan ("Bilig-Ilmiy
Faoliyat" mas'uliyatr cheklangan jamiyati
muassisligidagi) "Fan, ta'lim va amaliyot
integratsiyasi" jurnalini O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga
doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etiladigan nashrlar ro'yxatiga
kiritishni tavsiya qilish to'g'risida**

Markaz direktori A.Ibragimovning "Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi nashri hisoblangan ("Bilig-Ilmiy Faoliyat" mas'uliyatr cheklangan jamiyati muassisligidagi) "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" jurnalini O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasiga doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etiladigan nashrlar ro'yxatiga kiritishni tavsiya qilish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Markaz direktori A.Ibragimov so'zga chiqdi: – ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish, ilm-fan sohasidagi zamonavly yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy hamjamiyatda kuchli ijtimoiy va akademik pozitsiyalarni egallashga qaratilgan muhim omillardan biri ilmiy jurnallar hamda ularda chop etiladigan ilmiy maqolalar salmog'i va saviyasiga ham bog'liqdir. OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallar ilmiy tadqiqotlarning sifatini yuqori daralaga olib chiqadi. Bunday jurnallar tadqiqot metodologiyasiga, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni baholashda qat'iy talablar qo'yadi, bu esa ilmiy natijalarning ishonchliligi va yuqori darajadagi ilmiy ishlanmalarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtayi nazardan Markaz nashri hisoblangan "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" nomli ilmiy-uslubiy jurnal ham ilm-fanni yangilash va zamon talablariga moslashtirishda, ilmiy ishlarni global tendensiyalar asosida rivojlantirishga yordam beradi deb hisoblaymiz. Jurnal OAK tomonidan qo'yilgan talablar doirasida faoliyat yuritmoqda. Men kengash a'zolaridan ushbu jurnalni 13.00.00 - Pedagogika fanlari va 19.00.00 – Psixologiya fanlari bo'yicha OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilish zaruriyati mavjud, deb hisoblayman.

Markaz kengashi raisining fikrlariga kengash a'zolaridan falsafa fanlari doktori professor v/b K.Haydarov va dotsent M.Raximqulovalar o'zlarining ijobiy fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish

QAROR QILADI:

1. A.Ibragimovning Pedagogik mahorat markazi ilmiy-uslubiy jurnalini OAK ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Pedagogik mahorat markazi ilmiy jurnalini OAK ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida rasmiy xat tayyorlansin va OAKga yuborilsin.
3. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash ilmiy kengash a'zosi pedagogika fanlari doktori, dotsent G. Fayzullayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-martda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi**

Q A R O R I

2025-yil 27-mart

2/3.1-son
Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini
ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida**

Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov so'zga chiqdi: – Hurmatli yig'ilish qatnashchilari bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.1.bandi Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonlarga tavsiya etish to'g'risida bo'lib, Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloevichni professorlik ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori ilmiy unvoniga nomzod Ibragimov A'lamjon Amrilloevich haqida ma'lumot:

Ibragimov A'lamjon Amrilloevich 1974-yilda tug'ilgan, o'zbek. 1996-yil Samarqand davlat universitetining pedagogika fakultetini umumtexnika fanlari va mehnat o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha bitirgan.

2018-yil dekabridan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 2022-yildan pedagogika fanlari doktori. Samarqand davlat universiteti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda "Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko'p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish" mavzusida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini (diplom raqami 01 №001197, 2018-yil 29-dekabr, 260/1), "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini (diplom raqami 04 №007155, 2022-yil 30-sentabr, 325/1) himoya qildi.

Umumiy ish staji 27 yil, ilmiy va pedagogik ish staji 25 yil.

Mehnat va ilmiy pedagogik faoliyatining asosiy bosqichlari:

1996–1998-yy. – Samarqand davlat universiteti umumtexnika fanlari kafedrası katta laboranti.

1998–2003-yy. – Samarqand davlat universiteti umumtexnika fanlari kafedrası o'qituvchisi.

2003–2011-yy. – Samarqand davlat universiteti maxsus sirtqi bo'limi dekani o'rinbosari.

2011–2012-yy. – Samarqand viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti jismoniy tarbiya, san'at va mehnat ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi.

2012–2014-yy. – Samarqand viloyati pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'quv-metodik ishlar bo'yicha prorektori.

2015–2017-yy. – T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlar ilmiy tadqiqot instituti doktoranti.

2017–2018-yy. – Samarqand davlat universiteti pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

2018–2019-yy. – Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.

2019 y.–h.v. – Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori.

A.Ibragimov 2018-yil 3-sentabrdan Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida dars o'tib kelmoqda.

A.Ibragimov hozirgi kunga qadar 143 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirgan. Jumladan, "Malaka oshirish kurslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish" (2020), "Pedagogning individual ta'lim trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirish" (2020), "Zamonaviy o'quv mashg'ulotlarini interaktiv hamda muammoli ta'lim asosida tashkil etish metodikasi va texnikasi" (2022), "Malaka oshirish ta'limida muammoga asoslangan o'qitish texnologiyasini qo'llash" (2022) nomli 4 ta uslubiy qo'llanma hamda respublikamizdagi OAK ro'yxatiga kiritilgan va xorijiy nufuzli ilmiy jurnallarda 48 ta ilmiy maqola chop ettirgan.

A.A.Ibragimov ish faoliyati davomida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlar o'rtasida sog'lom ma'naviy raqobat muhitini shakllantirish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish va boshqa qator muammolar yechimiga oid bir qancha tadbirlarni tashkil etib keladi.

A.Ibragimov pedagogik faoliyati davomida davlat tili fani, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari yo'nalishi malaka oshirish kurs tinglovchilariga "Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar", "Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish", "Ta'limda boshqaruv", "Jamoatchilik va ota-onalar bilan ishlash" o'quv modullaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib boradi. O'quv yuklamasida belgilangan soatlarni to'liq bajaradi. Mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda taqdimotli, audiovizual va multimedia ta'lim resurslaridan foydalangan holda olib boradi. A.Ibragimov o'quv jarayonini tashkil etishda mutaxassislik fanlarini o'qitishga doir ishchi reja, dasturlar tuzib, kasbiy va qayta tayyorlov kurslaridagi bitiruv malakaviy ishlariga rahbarlik qiladi va ularni qabul qilish ishlarini tashkil etadi.

A.Ibragimovning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida pedagogika markazni 2025-yilgacha aniq maqsadli rivojlantirish bo'yicha 38 ta ko'rsatkich hamda belgilangan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si ishlab chiqildi.

A.Ibragimovning rahbarligida pedagogika markazida "Ta'limda kognitiv tadqiqotlar va muammoga asoslangan o'qitish" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi tashkil etilgan bo'lib, uning qoshida xalqaro hamda respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari samarali o'tkazilib kelinmoqda. 2021-yilda 2 ta, 2022-yilda 2 ta hamda 2023-yilda 3 ta, 2024-yilda 1 respublika va xalqaro ilmiy-amaliy onlayn, an'anaviy konferensiyalar o'tkazilgan hamda mas'ul muharrirligida anjuman to'plamlari chop etilgan. Shu bilan birga "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" respublika ilmiy-metodik jurnalining bosh muharriri sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

A.Ibragimov xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganishga va ularni malaka oshirish tizimida samarali qo'llashga doir muammolar yuzasidan o'zaro nazariy va amaliy bilimlar almashishda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Masalan, Markazda xalqaro hamkorlik aloqalari, ilg'or tajribalarni o'rganish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, Singapur Respublikasi "Six Clouds PTE. LTD" kompaniyasi asoschisi va rahbari Woon Hwee Kiat, trener-o'qituvchilar Noel Loh Hwei Ming, Woon Hwee Kiat, Calina Chew Hooi San, Benson Lek Hong Khim bilan hamkorlikda "Design thinking" ("Fikrlashni rivojlantirish") va "Problem based learning" (Muammoga asoslangan ta'lim) nomli qisqa muddatli maqsadli o'quv kurslari tashkil etildi.

Amerikaning Vermont shtatidan STEAM yondashuv va xalqaro baholash dasturi bo'yicha trenerlar Allan Miller va Joan Smith hamkorligida ishlab chiqilgan "NEGA (Nuturing Engagement and Growth for All) – STEM" loyihasi asosida uch kun Pedagogika markaz

professor-o'qituvchilari hamda maktab o'qituvchilari uchun o'quv-seminarlar va mahorat darslari tashkil etildi.

Rossiyaning A.I.Gersen nomidagi davlat pedagogika universiteti dotsenti E.V.Fedosenko bilan "Zo'r" ("Klass") loyihasi doirasida rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha malaka oshirish tizimida maqsadli kurs va seminarlar tashkil qilindi.

Pedagogika markaziga Italiyalik dotsent Andrea Gallo, Seul Milliy universitetining Seul volonterlar Dasturi bo'yicha volanter Li Jong Woo, Hindiston Anna universiteti professori janob Wishvanathan Kodakkallarning bilan hamkorlikda o'quv-seminarlari va mahorat darslari tashkil etilishida bosh-qosh bo'ldi.

Pedagogika markazi rejasi bo'yicha viloyat, tuman va Pedagogika markazi miqyosida ham seminar-treninglar tashkil qiladi. Tadbirlarda o'z fikr-mulohazalari bilan qatnashib, buyuk pedagoglarimizning ta'lim sohasiga qo'shgan hissasi, boy ma'naviy merosi, ularda odob-axloq qoidalari, maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini ko'tarish va asrab-avaylash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni malakasini oshirishda ko'maklashish, umumta'lim maktablarining jamiyatdagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzini yanada oshirishdan iborat ekanligi bo'yicha ma'ruzalar bilan qatnashib kelmoqda.

A.Ibragimovning ilmiy va mehnat faoliyatidagi yutuqlarini inobatga olgan holda uni professorlik unvoni berilishi maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Yuqoridagilar muhokama etilib va markaz Ilmiy-metodik kengashi

QAROR QILADI:

1. Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilarini ilmiy unvonga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida":

2.1. Pedagogik markaz Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloyevichni professor ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida"gi axborot ijro uchun qabul qilinsin.

2.2. Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloyevichni nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga professor ilmiy unvonini olish uchun tavsiya etilsin.

2.3. Pedagogika markazi Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrası professori v.b. Ibragimov A'lamjon Amrilloyevichni professorlik diplomini olish uchun Ilmiy-metodik kengashga taqdim etilgan hujjatlari OAKga taqdim etilsin.

3. Hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish Ilmiy-metodik kengash kotibi D.Yunusova va kadrlar bo'limi boshlig'i B.Ashurova zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosi akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S.Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova

**Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil
27-martda o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilishi
Q A R O R I**

2025-yil 27-mart

2/3.2-son
Samarqand shahri

**Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari
tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini
tasdiqlash to'g'risida**

Kengash kotibi D.Yunusovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi ma'lumoti eshitildi.

Ushbu masala yuzasidan Kengash kotibi D.Yunusova so'zga chiqdi: – Bugungi yig'ilishda ko'riladigan masalalardan har xil masalalar bo'limining 3.2 bandi Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida bo'lib, bu bo'yicha markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanmalar kengash tasdig'idan o'tkazish uchun qabul qilindi.

Markaz kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlariga ijobiy ichki va tashqi taqrizlar berilgan, tegishli kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib kafedra bayonnomalaridan ko'chirmalar taqdim qilingan.

Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan nashr ishlari

1	K.Xaydarov K.Okilova Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 6-7-sinflari uchun)	86 bet
2	K.Xaydarov T.Kadirov Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 8-9-sinflari uchun)	68 bet
3	K.Xaydarov A.Xo'jamqulov Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari uchun)"	87 bet

SO'ZGA CHIQDI: G.Tagayev so'zga chiqib, mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu uslubiy qo'llanmalar yuzasidan ijobiy fikrlarini bildirib, nashrga tavsiya etish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladi.

Qo'lingizdagi qaror loyihasi bo'yicha fikr va savollar bo'lsa marhamat.
Yuqoridagilar muhokama etilib va Markaz Kehgashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Kengash kotibi D.Yunusovning "Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari, bo'lim xodimlari tomonidan tayyorlangan nashr ishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagogik markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan quyidagi nashr ishini "Uslubiy qo'llanma" sifatida chop etilishiga ruxsat etilsin:

1	K.Xaydarov K.Okilova Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 6-7-sinflari uchun)	86 bet
2	K.Xaydarov T.Kadirov Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 8-9-sinflari uchun)	68 bet
3	K.Xaydarov A.Xo'jamqulov Sh.Xujakulov	Halollik va to'g'rilik (umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari uchun)"	87 bet

3. Markazning barcha kafedra mudirlariga:

- Markaz professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanmalarni nashr me'yorlari asosida tayyorlash hamda chop etishni tashkillashtirish;


- nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markazning ARMga belgilangan (uslubiy qo'llanma 15 ta) nusxasini taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Nashr etilgan metodik ishlarni Pedagogik markaz saytiga joylashtirish axborot resurs markazi zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror ijrosi nazorati akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari S. Murodov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

Kengash kotibi



A.Ibragimov

D.Yunusova